



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba’zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLAR

ETHNOGRAPHIC FOLKLORISMS IN THE STORIES OF ISADJON SULTAN

ISMIGUL MATKARIMOVA,

Andijon davlat universiteti magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XAVU9600

Annotation. *This article analyzes ethnographic folklorisms found in the stories of Isajon Sulton, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The study scientifically demonstrates that the writer widely uses folklorisms in his stories, particularly "literary ethnographism" (the representation of customs, rituals, traditional beliefs, and folk traditions in written literature), complex folklorisms, samples of folk songs, and symbolic images expressing the dreams and aspirations of the people. Special attention is paid to the unique features of folk-style characters, elements related to ancient rituals, legends, myths, and folk tales in the writer's stories. The research also reveals the harmony between ethnographic folklorism and the writer's individual artistic style.*

Key words. *folklorism, ethnographic folklorism, complex folklorism, symbol, national values, folk songs, legend, folk tale, myth.*

KIRISH. O'zbek adabiyotida munosib o'ringa ega bo'lgan ijodkor Isajon Sulton mustaqillik davri hikoyachiligida xalq og'zaki ijodi elementlarini yangicha badiiy talqinda qo'llab, o'zbek hikoyachiligida o'chmas iz qoldirgan. Bu jihatdan yozuvchi ijodi alohida e'tirofga sazovordir. Isajon Sulton o'z hikoyalarida xalqning qadimiy urf-odat, udum va an'alarini, marosimlar bilan bog'liq qarashlarini zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirib ifoda etgan ijodkordir. Shu bilan bir qatorda yozuvchi folklorizmlardan mahorat bilan foydalangan holda asar ta'sirchanligini yanada boyitgan.

Folklorizm masalasi o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, B. Sarimsoqov folklorizmlarning tipologik xususiyatlarini tahlil qilish davomida ularni oddiy va murakkab folklorizmlarga ajratgan. Murakkab folklorizmlarning sintezlashgan va stilizatsiyalashgan folklorizm turlari haqida fikrlar bildirgan. Analitik folklorizmlarga alohida to'xtalib o'tgan. „Analitik folklorizmlar folklor va adabiyot o'rtasidagi bilvosita aloqalarning bir ko'rinishi bo'lib, asarning badiiy to'qimasi, uning yetakchi g'oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatidan xarakterlanadi“ [O'zbek tili va adabiyoti jurnali 1982;57]. Ma'lumki, yozuvchi o'z hikoyalarida ham oddiy va murakkab folklorizmlarda unumli foydalangan. Uning hikoyalari murakkab folklorizm turlari bo'lgan- analitik va sintezlashgan folklorizmlar ham uchraydi [F. Qurbonova 2023;14]

Asosiy qism

Avvalo, yozuvchi uslubini o'ziga xosligi folklor na'munalaridan unumli foydalanilganligi bilan, bu uslubning shakllanishida yozuvchi tug'ulib o'sgan joy, urf-odat, oiladagi muhit juda katta ahamiyat kasb etadi. Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi va uslubidagi xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramoniga o'xshash jabrlangan, soda, oddiy odamlarning turmush tasvishlari, ularning o'y xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Masalan, „Bibi Salima“, „Shamolli kecha“, „Bog'I Eram“, „Qish ertaklari“, „Manzil“ hikoyalarida bu yaqqol namoyon bo'ladi. [F. Qurbonova 2023;14]

Bundan tashqari, yozuvchi o'zining „Bibi Salima“ hikoyasida etnografik folklorizmdan unumli foydalangan. Ushbu hikoyada Bibi Salimaning tong sahar turib baraka kiradi deb eshiklarni ochishi, bundan tashqari, u oddiy ayol emas duogo'y, tabarruk inson sifatida tasvirlanadi. Kampirning ro'mol o'rashi, milliy kiyinish, o'zbek xalqiga xos bo'lgan detallardan



bo‘lgan tandir loyo‘choq, suvpaqir, hovli muhiti, supa kabilar xalqning yashash tarzini o‘zida mujassam etadi. Hikoyada xalqning milliy urf odatlarini ifoda etuvchi keksalarni e‘zozlash, ulardan duo olish, nasihatlar va xalq tiliga xos bo‘lgan iboralardan keng qo‘llanilgan. Bu hikoyada milliy ruh va an‘ananing badiiy aks ettirgan. Isajon Sulton hikoyalarida milliylikning yana bir ko‘rinishi bo‘lgan xalqning orzu-armonlarini aks ettiruvchi xalq qo‘shiqlari dan ham unumli foydalangan. Bu esa hikoyalarining ta‘sirchanligini yanada oshirgan. Z. Eshanova shunday yozadi:

“Xalq og‘zaki ijodidagi xalq qo‘shiqlari, mif, afsona, rivoyat, ertak kabi janrlarga oid biror satr yoki bir band she‘r yozma she‘r tarkibida muallif tomonidan aynan keltirilishi (g‘oyaviy maqsadni yuzaga chiqarish uchun) analitik folklorizmdir. [Z. Eshanova 2022; 70]. Yozuvchi ijodida analitik folklorizmni yaqqol namunasi sifatida „Qo‘riqchi“ hikoyasini olishimiz mumkin. Adib hikoyada vaqtning bir bo‘lagini qirqib olib, unga qo‘riqchi nigohi bilan qarab, ilon, karvon, qushlar, daryo baliqlari tilidan bek yigitning oy qizga ko‘ngil qo‘ygani, u bilan oila qurgani, turmush mashaqqatlari, o‘tayotgan umr ramziy obrazlar orqali, xalq qo‘shiqlaridan foydalangan holda juda mukammal va insonni o‘yga toldiradigan tarzda ifoda etiladi. Hikoya erta bahor tasviri bilan boshlanishi va kech kuz manzarasi bilan yakun topishi inson umrining ramziy ifodasi hisoblanadi. Hikoyadagi daryo - hayot, ayni vaqtda o‘tib borayotgan vaqt, hijron; baliq – g‘am, g‘ussa; ilon – aql; karvon – umr; yo‘lchivin – umri besamar kechgan odam; jayron – umid mazmunini anglatuvchi ramzlardir. Hikoyadan o‘rin olgan xalq qo‘shiqlari kechinma, holatni aks ettiradi. Mayda-mayda sabablar, tashvish-u g‘amlar – ulkan baliqlarga aylandi, endi ular odam bolasini yutar darajaga yetmasa bo‘ldi! Qo‘riqchining xavotiri shundan. Ayol tilidan aytilgan so‘nggi qo‘shiq xalq qo‘shiqlari tasnifiga ko‘ra murojaat qo‘shiqlari turkumiga kiradi. Kishi ko‘nglida kechayotgan, ayniqsa, odam xayoliga keltirishga o‘zi ham qo‘riqib, ko‘ngil tubiga cho‘ktirilgan o‘y-tuyg‘ular qo‘shiq bo‘lib kuylanadi. Qo‘shiq kishiga sirdosh, mungdosh bo‘ladi. Bunday holatlarda ramziy obraz ifodaning eng maqbul shakli hisoblanadi. Insoniy munosabat fasllari ham turli davriy halqalarda kechadi. Yoz qishga do‘nganidek, otashin sevgi qahrli nafratga aylanishi mumkin. Bu yerda ko‘z yoshi ayriliq ma‘nosini ifoda etuvchi va jazolovchi magik unsurga aylanadi. Lirik qahramon muhabbatining qadriga yetmagan oshig‘ini endi azoblanishini istaydi:

Oh urarman, oh urarman, ohlarim tutsin seni,

Ko‘z yoshim daryo bo‘lib, baliqlari yutsin seni.....[I. Sulton 2017; 211]

Folkloshunos Sh. Turdimov o‘zbek xalq qo‘shiqlari tarkibida keluvchi daryo obrazini o‘rganar ekan, mazmun mundarejasiga ko‘ra 5 guruhga ajratadi [Sh. Turdimov 2020; 111-113] to

Aytish joizki, yozuvchi o‘z uslubining boshqa ijodkorlardan ajratib turadigan jihati, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib, asar mazmunini yanada ko‘rkamlashtiradi. Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasida qadimgi mifologik motiv – inson ruhining vafotidan so‘ng baliqqa aylanishi, qahramonning ichki dunyosini ochilishida muhim poetik vazifani bajargan. Marhum otasi ruhining baliqqa evrilishi oqibatida qahramon unga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi. Baliqning qozondagi yog‘ ichra jazzillab qovrilishini qahramon do‘zax azobi sifatida qabul qiladi. Guyo u zulmkor otasining narigi dunyoda do‘zax olovida qovrilayotganini tasavvur qiladi. Mazkur tasvir esa qahramonning nafratini, odamlar va olamga bo‘lgan munosabati mohiyatini ochishga ham xizmat qilgan. Badiiy qahramon kechinmalarining ichki diologizm vositasida berilishi, ruhning baliq bo‘lib qozonda qovurilishi holati hikoya mazmunini kuchaytiradi. O‘quvchini ezgulik va yovuzlikning oqibatlari borasida o‘ylashga undaydi. Hikoya kompozitsion jihatdan “Kichik o‘g‘il”, “O‘rtancha o‘g‘il”, “Kichik o‘g‘il”, “Katta o‘g‘il”, “Ota”, “Kampir”, “Kichik o‘g‘il” kabi yettita ixcham qismlardan tarkib topishi, voqelikni turli rakurslardan kuzatish imkonini berish bilan bir qatorda, ena obrazining achchiq qismati va o‘z taqdiriga qarshi bormasligi misolida insonning kechirimlilik, ertadan umidvorligi ham qalamga olingan. Shunga qaramasdan, adib asosiy e‘tiborini insonning qilmishi tasviriga qaratgan.

Isajon Sultonning “Bog‘i Eram” hikoyasida Eram bog‘i haqidagi asotir orqali odam jonining boshqa shaklga o‘tishi haqidagi animistik mifning badiiy talqini

keltiriladi va bu esa asarning struktural-semantik asosini tashkil etadi. Yozuvchi hikoyada o‘zbek folkloridagi qahramonning “o‘zga olam”ga safari to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlardan ijodiy foydalangan. Bu o‘rinda qo‘llanilgan “ariq” qadimgi mifologiyada “o‘z” va “o‘zga” olamlarni birlashtirib turuvchi asotiriy vosita vazifasini o‘tagan. Ma’lumki, g‘or, ariq, daryo, hovuz, daraxt uchi kabilar zamin va o‘zga olamni bog‘lab turuvchi vosita sanaladi. [Sobolev 1912;90-91].

XULOSA

Tadqiqot natijasida Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizm namunalari aniqlanib, ular muhim poetik vosita sifatida qo‘llanilgani aniqlandi. Yozuvchi hikoyalarida qahramonlarning ruhiyati, ularning yashash tarzigacha o‘zbekona tasvirlab, tasvirlangan voqealarni hayotiylikni oshirish maqsadida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan mahorat bilan o‘z o‘rnida foydalangani kuzatildi. Isajon Sulton hikoyalarining uslubi u qadar murakkab emas. Ifoda yo‘sinida milliylik, an‘naviylik, tasvir aniqligi va metaforiklik, shuningdek, holat tasvirining birinchi planga chiqarilishi kabi jihatlar yaqqol sezilib turadi; ijodkor uslubining o‘ziga xosligi oddiy, analitik va sintezlashgan folklorizmlardan foydalanishda, folklorizmlarning asar syujetida ochiq va yopiq holda qo‘llashda, peyzajdan o‘rinli foydalanishda ko‘rinadi [Qurbonova 2023; 21].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbanova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin. – Farg‘ona: Classic, 2023. – 24 b.
2. Kurbanova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizmlarning o‘rni // University Research Base. – 2025. – №5. – B. 374–381.
3. Isajon Sulton ijodida folklor an‘analar // ICNCS Conference Proceedings. – 2024. – B. 55–61.
4. Isajon Sultonning analitik folklorizmlardan foydalanish mahorati // Uzresearchers Conferences. – 2024. – B. 92–97.
5. Isajon Sulton hikoyalari va mif // Konferensiyalar to‘plami. – 2024. – B. 41–47.
6. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tafakkur asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 256 b.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 320 b.
8. Imomnazarov M. Folklor va adabiyot munosabati. – Toshkent: Fan, 2017. – 284 b.
9. Jabborov N. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 240 b.
10. Rasulov A. O‘zbek hikoyachiligi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2016. – 276 b.
11. Karimov B. Hozirgi o‘zbek adabiyoti va folklor. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2021. – 198 b.
12. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2010. – 356 b.
13. Исажон Султон. Қўриқчи. // Асарлар. Ҳикоялар. 1- жилд. – Тошкент, 2017. – Б. 211.
14. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. - Т.: Фан, 2020. – Б. 111 -113.